

O'SMIRLARDA TAJOVUZKORLIK SIFATLARINI BARTARAF QILISH USULLARI

Yaxshiboyev Sardor

O'ZMU Jizzax filiali magistranti

Anotatsiya: *Mazkur maqolada o'smir yoshdagi shaxslarning tajovuzkorlik xulq-atvorining shakllanishi, uning sabab va omillari, shuningdek, bunday xatti-harakatlarni bartaraf etishning samarali usullari haqida so'z yuritiladi. O'smirlarning tajovuzkorligi nafaqat individual omillar, balki oilaviy va ijtimoiy muhit ta'siri ostida rivojlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, tajovuzkorlikni kamaytirish uchun psixologik treninglar, muhitni optimallashtirish va ta'lim muassasalarida maxsus dasturlarni amalga oshirish zarurligi ta'kidlanadi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается формирование агрессивного поведения подростков, его причины и факторы, а также эффективные методы устранения подобных проявлений. Анализируется влияние не только индивидуальных факторов, но и семейной и социальной среды на развитие агрессивности подростков. Подчеркивается необходимость проведения психологических тренингов, оптимизации окружающей среды и внедрения специальных программ в образовательных учреждениях для снижения уровня агрессии.*

Kalit so'zlar: *Tajovuzkorlik, o'smir, psixologik profilaktika, ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, psixoterapiya, ta'lim, xulq-atvor, stress, emotsional intellekt, konflikt, pedagogik yondashuv, jamiyat, boshqaruv, psixodiagnostika.*

O'smirlik davri inson hayotining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, unda shaxsning ijtimoiylashuvi va xulq-atvor shakllanadi. Ushbu jarayonda ba'zan tajovuzkorlik ko'rinishlari kuzatilishi mumkin. Bu muammo nafaqat o'smirning o'ziga, balki uning atrofidagi jamiyatga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tajovuzkorlikning kelib chiqish sabablarini aniqlash va uni kamaytirish usullarini ishlab chiqish zamonaviy psixologiyaning dolzarb masalalaridan biridir. Respublikamizda so'nggi yillarda o'smirlar orasidagi o'z joniga qasd qilishning sabablarini o'rganish, aholi ruhiy salomatligini saqlash va normativ-huquqiy jihatdan muhofaza qilishga oid vazifalarni bajarish uchun zarur asoslar yaratilmoqda: «O'tgan vaqt mobaynida aholi ruhiy salomatligini muhofaza qilish milliy xizmatini takomillashtirish, ruhiy holati buzilishidan aziyat

chekayotgan shaxslarni aniqlash, davolash va rehabilitatsiya qilish bo'yicha sog'liqni saqlash tizimining barcha darajalarida muayyan ishlar amalga oshirildi».¹

O'smirlar orasida tajovuzkorlikning shakllanishi individual, oilaviy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Psixologik jihatdan tajovuzkorlik frustratsiya, impulsivlik va emotsional boshqaruv yetishmovchiligi bilan izohlanadi. Ijtimoiy omillar esa do'stlar davrasi, maktab muhitining ta'siri, internet va ommaviy axborot vositalarining roli bilan bog'liq. Shuningdek, sotsiolog olimlar va falsafa fanlari sohasi vakillari tajavvuzkorlikning jamiyatda turli xil boshqaruv yo'llari mavjudligini o'rganib, turli xil axloqiy nazariyalarini ishlab chiqadilar. Bu normalarning yaratilishi tajavvuzkor xulqning tizimli tarzda o'rganilishini va uni cheklashga qarshi harakatlarni bajarishga qaratilgan. Qolaversa, so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar orqali qilinayotgan ommaviy tahdidlar natijasida vujudga keladigan tajavvuzkorlik xulqi va turlari haqida o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa ma'daniy tajavvuzkorlik konsepsiyasining rivojlanishi va bu qarashlarda ideologiya hamda jamoaviy tajavvuzkorlikda ommaviy axborot vositalari omillarining zo'ravonlikga nisbatan chidamlilikni shakllantirishga ta'sir darajasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Tajavvuzkorlik etikasining shakllantirilishida neyrobiologiya, psixologiya hamda etika va sotsiologiya sohalarini qamrab oladigan ko'plab olib boriladigan ko'p qirrali tadqiqotlar hisoblanadi. Tajovuzkorlik bevosita va bilvosita shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Bevosita tajovuzkorlik jismoniy yoki so'z orqali namoyon bo'lsa, bilvosita tajovuzkorlik esa boshqalarga nisbatan manipulyatsiya va psixologik bosim ko'rinishida yuzaga chiqadi. Tajovuzkorlikning asosiy sabablariga oilaviy nizolar, ijtimoiy bosim, psixologik stress va o'zini ifodalashga bo'lgan ehtiyoj kiradi.

Tajovuzkorlikni kamaytirish uchun turli psixologik yondashuvlar qo'llaniladi. Ulardan ba'zilariga quyidagilar kiradi:

Kognitiv-bihevioral terapiya – o'smirlarning tajovuzkor xulq-atvorini tushunish va uni konstruktiv yo'nalishga yo'naltirish.

Trening mashg'ulotlari – emotsional intellektni rivojlantirish va konfliktlarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Stressni boshqarish metodlari – meditasiya, nafas olish mashqlari va relaksatsiya texnikalari orqali ichki bosimni kamaytirish.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-son «2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisi ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori.

Z. Freyd (1856) o'zining psixoanalitik nazariyasiga ko'ra, o'smirlardagi suitsidal qolaversa shu bilan birgalikda tajovuzkorlik xulqi ularning ichki nizolaridan kelib chiqadi. O'smirlik davrida jamiyat hamda shaxsning o'z-o'ziga nisbatan turli xil his-tuyg'ular kuchayishi va shaxsiy qiyinchiliklar oshib borishi bilan shaxsda agressivlik va depressiv his-tuyg'ular namoyon bo'lishi mumkin. Olim o'smirlikdagi suitsidal xulqni ichki ziddiyatlar, o'smirning o'ziga nisbatan nafrat, yoki qayg'uni chiqarishning yo'llarini topa olmaslik bilan bog'laydi. Freydning nazariyasiga asosan: "Ichki hissiy muvozanatsizlik va qayg'u suitsidal fikrlashga olib kelishi mumkin. O'smirlar o'z his-tuyg'ularini ifodalashda qiyinchilikka uchraganlarida, ular ichki g'azablarini o'zlariga yoki boshqalarga qarata aks ettirishi ehtimoli ortadi". Freydning ushbu fikrlariga asoslanib, o'smirlik davridagi turli xil jarayonlarning vujudga kelishida shaxsning o'z aniq reja-maqсадlari va his-tuyg'ularga chiday olmaslik sababli suitsidal fikrlar vujudga kelishini o'rganib chiqishimiz mumkin bo'ladi.

Oilaviy tarbiya tajovuzkorlikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ota-onalarning mehribon va qo'llab-quvvatlovchi munosabati o'smirning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktab muhitida esa pedagoglar va psixologlarning hamkorligi orqali agressiyani kamaytirishga qaratilgan maxsus dasturlar joriy qilinishi lozim. **Erikson (1902)** o'zining psixosotsial rivojlanish nazariyasida o'smirlik davrini "shaxsiy identifikatsiya va rol chalkashuvi" bosqichi deb ataydi. Bu bosqichda o'smirlar o'z shaxsiy identifikatsiyalarini topishga harakat qiladilar, ammo ular ushbu jarayonda o'zlari kutgandek natija olmasalar hamda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa yoki atrofdagilar tomonidan qabul qilinmasa, depressiya va suitsidal fikrlar paydo bo'lishi mumkin. Eriksonning ilmiy jihatdan talqiniga ko'ra, *"O'smirlar o'z-o'zini anglash va atrof-muhitga moslashishdagi qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Shu bois, ular o'zlarining kelajakda kim bo'lishlarini aniqlay olmaydigan holatga tushib qolishlari, bu esa suitsidal xulqqa olib kelishi mumkin. Shuningdek, bu davrda tajovuzkorlik ham o'z o'rniga ega bo'lib, o'z-o'zini anglashdagi muvaffaqiyatsizlikka tajovuzkor javob sifatida paydo bo'lishi mumkin."*

O'smirlik davridagi shaxs jamiyatdan kutilgan javobni ololmaganligi natijasida ertangi kunga nisbatan qiziqishlari susayishi mumkin va bu vaqtda u jamiyatdan uzilib ijtimoiy izolyatsiyaga tushib qolishi mumkin. Bu jarayonda o'smir o'zining psixologik o'zgarishlarini turli xil salbiy vositalar ya'ni tajavvuzkorlik holatlari bilan namoyon qiladi. Shuningdek, xorijiy olimlardan **Emil Durkheim (1858)** o'zining klassik yo'nalishdagi izlanishlarida suitsid va uning ijtimoiy muhit bilan aloqadorligini ko'rib chiqqan. Olimning ilmiy

izlanishlari natijasiga ko'ra insonning suitsidga moyillik xususiyati uning ijtimoiy muhitdagi aloqalari hamda jamiyat tomonidan qondirilmagan ehtiyojlari va shaxsiy kutuvlariga bog'liqligi ta'kidlangan. Jamiyat bilan ushbu aloqadorlik turli xil yosh davrlarida ham kuzatilishi mumkin ammo, o'smirlik yosh davrida bu munosabatlar ahamiyatli o'rinlarda turadi va bu yosh davrdagilar ijtimoiy ihatdan izolyatsiyaga tushib qolganlarida ularning fikrlari orasida suitsidal fikrlar ham uchrashi va hattoki kuchayishi ham mumkin. Emil Durkheim fikriga ko'ra: *“O'smir yoshidagilar ijtimoiy yakkalanish va begonalashuv hislaridan aziyat chekib, suitsidal tendensiyalarga moyil bo'lib qolishlari mumkin va bu esa tajavvuzkorlik xulqining namoyon qilinishi bilan ko'zga tashlanadi”*. Yuqoridagi fikrlar orqali olim o'zining ilmiy ishlarida suitsidal fikrlar kelib chiqishining asosiy ta'sir qiluvchi omillari haqida so'z yuritadi. Har bir ijtimoiylashuv jarayoning ishtirokchisi doimiy va uzliksiz ijtimoiy munosabatlar va aloqalar qilishga harakat qiladi. Chunki shaxs ijtimoiy munosabatlar mahsulidir.

O'smirlik davridagi tajovuzkorlik ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashuvchan vazifasini bajaruvchi hodisa sifatida qaraladi. Bu jarayon o'smirlarga o'z identifikatsiyasini izlash, shaxsiy chegaralarni aniqlash va ijtimoiy jamiyat me'yorlarni o'zlashtirishda yordam beradi. Ammo, bu jarayonni to'g'ri tomonga yo'naltirish va o'smirlarga his-tuyg'ularni sog'lom usullar bilan boshqarishni amalga oshirishni va nizolarni konstruktiv hal qilishni ko'rsatish muhimdir, chunki to'g'ri yo'n berish tajovuzning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi. Tajavvuzkorlik xulqi namoyon bo'lishida atrof-muhit va oilaviy munosabatlar hal qiluvchi o'rinda turadi. Shuning uchun aynan o'smirlik davrida yoshlar tarbiyasiga diqqat bilan e'tibor berish talab qilinadi. O'smirlik davrida tajovuzkorlikni kamaytirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Psixologik, pedagogik va ijtimoiy strategiyalar orqali o'smirlarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy muhitni yaxshilash, maktabda ijobiy muhit yaratish va maxsus psixologik treninglar o'tkazish orqali tajovuzkorlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurasulov R.A., Qarshiboyeva G.A., Ibaydullayeva U.R. Psixologik maslahat. // O'quv-uslubiy qo'llanma. - Toshkent.: Bayoz. 2017. 10,5 b.t.
2. Abdurasulov R.A., Qarshiboyeva G.A. Psixologik trening asoslari. // O'quv qo'llanma. Toshkent.: Bayoz. 2019. – B. 186.
3. Bandura, A. (1965). "Influences of models' reinforcement contingencies on the acquisition of imitative responses." *Journal of Personality and Social Psychology*, 1(6), 589-595.-b
4. Davidov, V. V. (2000). "Otsenka aggressivnosti v pedagogicheskoy srede." *Pedagogika i Psikhologiya*, 23(4), 121-130.
5. Gozman, L.A. (2003). "Psikhologicheskie metody sokhraneniya psikhicheskoe zdorov'ya podrostkov." *Psikhologiya i Pedagogika*, 17(3), 65-71.
6. Krutetskiy, A. I. (1984). "Psikhologiya otnosheniy v gruppakh i obshchestve." Moskva: Pedagogika-2007. 164-b
7. Klimov, E. A. (1988). "Psikhologiya podrostka: Agressiya i ego ustranenie." Moskva: Progress.Klimov, E. A. (2005).
8. Klimov,E.A. (1988) "Psikhologiya i pedagogika: podrostkovaya agressiya." *Psychologia i Pedagogika*, 14(2), 35-42.
9. Karimova, R. A. (2013). "O'smirlar orasida tajavvuzkorlik va ijtimoiy normalarga moslashish." Tashkent: Akademnashr.-B 187.